

VOLUME-1, ISSUE-5

Fe'l so'z turkumida mayl kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari

Yigitaliyeva Shohsanam Isog'ali qizi

Qo'qon DPI o'qituvchisi

Hamraliyeva Shahzoda Kamoliddin qizi

Qo'qon DPI talabasi

Annotatsiya. Harakatning voqelikka munosabatini ifodalaydigan grammatik shakllar fe'l mayllari deyiladi. Mayl kategoriyalari fe'l zamonlari, shaxs-son kategoriyalari bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun fe'l mayllari harakatning bajarilishini real borliq bilan bog'langanligini **bildirib**, aniqlik, buyruq-istak, shartkabi ma'nolarni ifodalaydi.

Kalit so'zlar: Fe'l, grammatika, zamon, mayl, nisbat, voqelik, shaxs, shart mayli, gap, gap bo'laklari.

Mayl kategoriysi — harakatning voqelikka munosabatini so'zlovchi nuqtai nazaridan belgilovchi grammatik kategoriya. O'zbek tilida maylning quyidagi turlari bor: 1) buyruqistik mayli: ayt, aytgin, ayting kabi; 2) shart mayli. Bu mayl shakli sa affaksi yerdamida yasaladi: borsam, borsang, kursa kabi; 3) shartli mayl — bajarilishi shart ergash gapdan anglashilgan harakatning bajarilishiga bog'liq bo'lgan (shartlangan) harakatni bildiruvchi mayl. Bu mayl shakli (a)r edi, maye edi yerdamida yasaladi va bu shakldagi Fe'l bosh gapning kesimi bo'lib keladi.

Zamon kategoriysi — harakatning nutq paytiga munosabatini bildiruvchi grammatik kategoriya. Harakatning nutq paytiga munosabatiga ko'ra Fe'lning 3 zamon turi farqlanadi: o'tgan zamon — keldi, oldim; hozirgi zamon — kelyapman, kelyapti; kelasi zamon — kelaman. Shaxs son kategoriysi — harakatning 3 shaxs (so'zlovchi, tinglovchi, o'zga)dan biriga oidligi ma'nosini bildiruvchi grammatik turkum: keldi m (birinchi shaxs, birlik), keldik (birinchi shaxs, ko'plik), kelding (ikkinci shaxs, birlik), keldingiz (ikkinci shaxs ko'plik).

FE'LLARDA MAYL SHAKLLARI. So'zlovchining fe'ldan fe'ldan anglashilgan harakat-holatiga munosabatini bildirgan fe'l shakllariga mayl shakllari, shunday shakllar tizimiga esa mayl kategoriysi deyiladi. Harakatning voqelikka munosabatini ifodalaydigan grammatik shakllar fe'l mayllari deyiladi. Mayl kategoriyalari fe'l zamonlari, shaxs-son kategoriyalari bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun fe'l mayllari harakatning bajarilishini real borliq bilan bog'langanligini bildirib aniqlik, buyruq-istak, shartkabi ma'nolarni ifodalaydi. Shunga ko'ra fe'llarda uch mayl bor:

1. Xabar mayli. 2. Buyruq -istak mayli. 3. Shart mayli.

Xabar (yoki ijro) mayli---harakat holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi haqidagi xabar darakni bildiruvchi fe'l shakli xabar shakli hisoblanadi. Xabar maylining maxsus qo'shimchasi yo'q. Xabar mayli fe'l asosiga zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali ifodalanadi. Keldi, keladi.

Aniqlik mayli uch zamondan birida aniq bajariladigan yoki bajarilmaydigan harakatni bildiradi. Aniqlik mayli fe'lning sifatdosh, ravishdosh shakllarini tuslash bilan hosil bo'ladi. Aniqlik mayli uch zamonni o'zida aks ettiradi: Ikromjon osmonga qaray-qaray ko'chaga chiqib ketdi. (S.A.) Hozirgidaqa alam o'tib ketgan paytlarda Aziz o'zini -o'zi koyishga ham tushadi. (O.) Buyruq-istak mayli ish-harakaming bajarilishi jarayonidagi buyruqni, xohish. istak, iltimos, undash ma'nolarini ifodalaydi. Yaxshilab eshitib, qulog'ingga quyib ol. Amakingning ko'ngli yarimta, yonidan jilma. (S.A.) Shuni bilib qo'ying demoqchiman. xolos.

Buyruq-istak mayli---harakat va holatini bajarish yoki bajarmaslik haqidagi buyruq , istak, iltimos, maslahat ma'nolarini bildirgan, harakatni bajarishga da'vat etish ma'nosini bildiradigan fe'l shakliga buyruq-istak mayli shakli deyiladi.

VOLUME-1, ISSUE-5

Buyruq-istik mayli shakllari fe'l asoslariga quyidagi qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi: -y(ay), -(a)yon, -gin, -kin, -qin, -(i) ng, -sin(lar), -(a) ylik, -(i) nglar. Hayot saboqlarini o'rgangin. Fe'lning zamon, shahs-son qo'shimchalarisiz qismi || shahs buyruq-istik maylini ifodalaydi. Bu qismga buyruq-istik ma'nosini kuchaytirish uchun -gin qo'shimchasini qo'shish ham mumkin, shuning uchun bu ikki shakl ma'nodosh sanaladi: kel-keling-kelgin; ol-oling-olgin. Buyruq -istik maylining ikkinchi shaxsi qat'iy buyruq ma'nosini anglatadi: Tayyormisizlar? Qani jiyan yuklarni aravaga olib kiraver. (S.A.) Iltimos, undash ma'nosidagi buyruqni anglatadi. O'sh yo'lida bo'lurmiz. Onamga xabar bering. (P.Q.) Tinch ohangdagi hurmat ma'nosidagi buyruqni ifodalaydi: qani bu suratni menga bering mirzom. (P.Q.) Buyruq-istik maylining uchinchi shaxsi asosan buyruq ma'nosini, shuningdek, tinch ohangda aytilganda iltimos. undash ma'nolarini anglatadi: Shoshmang, chiqishsin bular. keling, birpas dampingizni oling. (O.Yo.) Buyruq-istik maylining uchinchi shaxsi suhbat jarayonida ishtirot etmagan shaxsga, narsa va hodisalarga qaratiladi: Mayli, dindan qaytganni yana din yo'liga solish - savob ish. Shahzoda Temurxon uni o'z odamlari qatoriga olsinlar. (P.Q.)

Shart mayli--boshqa bir harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uchun shart bo'lgan harakat va holatni, shuningdek, istak-xohishni bildirgan fe'l shakli shart mayli shakli sanaladi, shart mayli -Sa qo'shimchasi yordamida yasaladi: Aysam, tilim, aytmasam dilim.

Shart mayli edi, ekan to'liqsiz fe'llari bilan kelganda orzu-istik ma'nosini bildiradi: -Sa edi shakli ba'zan -Saydi tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi; ko'rsaydi, o'qisaydi.

Shart mayli shakli kerak so'zi bilan kelganda taxminan-gumon ma'nosini bildiradi: Bu bola yaxshi bilsa kerak (bilmasligi ham mumkin) Maqsad mayli---harakatning biror maqsadda bajarilishini bildiradi, -moqchi qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi. Masalan; Yozmoqchiman., yozmoqchisan, yozmoqchi. Shart mayli biror harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart qilib qo'yilgan harakatni ifodalaydi. Fe'lning shart mayli shakli fe'l negiziga - sa qo'shimchasi qo'shish va tuslash bilan hosil bo'ladi. Shuning uchun- sa qo'shimchasi fe'lning shart mayli shakli hisoblanadi.

Shart mayli shakli quyidagicha ma'nolarni ifodalaydi:

1. Nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilishi shart qilibqo'yilgan harakatni ifodalaydi. Bu shakl -sa qo'shimchali fe'lituslash va edi to'liqsiz fe'lini keltirish bilan hosil bo'ladi: yozsamedi, o'qisam edi.

2. Nutq jarayonidagi harakatni ifodalaydi. Bu shakl -saqo'shimchasi **orqali ifodalanib**, shu qo'shimchani olgan fe'l ergashgapning kesimi vazifasida keladi: Agar surat qo'lga tushsa, u qizham malomatga qoladi.(P.Q.)

3. Maqsad, orzu, xohish -istikma'nolarini ifodalaydi. Bu shakl fe'lga -sa qo'shimchasi qo'shish orqali, shuningdek -sa qo'shimchasi qo'shib tuslash bilan hosil bo'ladi. Masalan, aytSAM, borsang, kelsam.

4. Iltimos, maslahat ma'nolarini anglatadi. Bu shakl ham fe'lga -sa qo'shimchasi qo'shish va tuslash bilan hosil bo'ladi. Masalan, borsang, olsang, yozsang.

5. Demak, fe'l anglatgan ish-harakat vogelikka munosabatiga ko`ra aniqlik, shart (istik), buyruq (istik) kabi qo'shimcha modal ma'nolarni ifodalaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yigitaliyeva, S. (2023). KOGNITIV TILSHUNOSLIK VA UNDA KONSEPT TUSHUNCHASINING IFODALANISH. *Scienceweb academic papers collection*.

2. Yigitaliyeva, S. (2022). O'zbek tilida yaxshilik konsepti va uning xalq maqollarida ifodalananish xususiyatlari. *Qo'qon DPI. Ilmiy habarlar*.

VOLUME-1, ISSUE-5

3. Yigitaliyeva, S. (2021). Linguistic analysis the concept of GOODNESS. *Scienceweb academic papers collection*.
4. Isog'aliyevna, Y. S. (2023). Boshlang'ich sinflarda mustaqil so'z turkumlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. *Conferencea*, 16-21.
5. Yigitaliyeva, S. (2023). TUSHUNCHA KOGNITIV LINGVISTIKANING ASOSIY BIRLIGI SIFATIDA. *XORAZM MA 'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI–6/4-2023*.
6. Tursunaliyevna, A. M. (2023, May). OMONIMLAR VA SUN'IY INTELLEKT. In International Congress on Models and methods in Modern Investigations (pp. 48-51).
7. Yigitaliyeva, S., & Yo'ldoshboyeva, O. (2023). OLIY TALIMDA ONA TILI FANINI O 'QITISHNING NAZARIY MASALALAR. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 41-44.
8. Abdurahmanova, M. T. (2023). OMONIMLARNI FARQLASH USULLARINING SUN'IY INTELLEKT VA MASHINA TARJIMASIDAGI O 'RNI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 241-248.
9. Yigitaliyeva, S. (2022). O'zbek tilida yaxshilik konsepti va uning xalq maqollarida ifodalanish xususiyatlari. *Qo'qon DPI. Ilmiy habarlar*.
10. Abdurahmanova, M., & Olimova, M. (2023). MORFOLOGIK ANALIZATOR XUSUSIDA. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
11. Isog'aliyevna, Y. S. (2023). Boshlang'ich sinflarda mustaqil so'z turkumlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. *Conferencea*, 16-21.
12. Xolmanova, Z. (2020). Kompyuter lingvistikasi. Nodirabegim:-Toshkent, 247.

C
M
R
T